



ERKIN VOHIDOVNING "NIDO" DOSTONIDAGI OKKAZIONAL BIRLIKLAR

Abduraximova Sofiya

NDU Tillar fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15544613>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 29th May 2025

KEYWORDS

okkazional birlik, individual til, poetik til, leksik birlik, Erkin Vohidov, "Nido" dostoni

ABSTRACT

Mazkur maqolada Erkin Vohidov ijodining yorqin namunasiga aylangan "Nido" dostonidagi okkazional birliklar tahlil qilingan. Muallifning individual til yaratuvchilik xususiyatlari, poetik obrazlilik va leksik-semantik yangilik keltiruvchi vositalar asosida izohlangan. Okkazional birliklarning doston kontekstidagi ma'no darajalari ochib beriladi.

Hozirgi o'zbek adabiyotida muayyan shoir va yozuvchilar tiliga xos bo'lgan, individual ijodiy yondashuv mahsuli sanalgan okkazional birliklarning o'rni alohida e'tiborga loyiq. Jumladan, Erkin Vohidovning poetik merosi bu borada boy manba hisoblanadi. Shoirning "Nido" dostoni nafaqat falsafiy, balki tilshunoslik jihatdan ham chuqur tahlilni talab etadigan asarlardandir.

Okkazional birliklar – bu muallif tomonidan yaratilgan, umumxalq tilida mavjud bo'lmagan, biroq poetik matnda estetik va semantik yuklama orttirgan yangi til birliklaridir. Bunday birliklar ko'pincha she'rning obrazli vositalarini kuchaytirishga, hissiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Erkin Vohidovning "Nido" dostoni bu borada nihoyatda boy va sarmazmun. Shoir muayyan voqealarga munosabatini bildirar ekan, tilning estetik qudratini yangicha ifoda vositalari orqali namoyon etadi. Masalan, quyidagi to'rtlikda okkazional birlik sifatida *"uch chiziqli daftarim"*, *"ikkala ko'zim bilan teng"* kabi ifodalar e'tiborga loyiq:

«Dadajon! Men sizni juda sog'indim,

Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng.

Kelib qolarmishsiz ertami-indin,

Ayam shunday dedi, Rostmi shu, ayting?!»

Bu yerda *"ikkala ko'zim bilan teng sog'inish"* ifodasi – sof shoirona tafakkur natijasidir. Bu ifoda kontekstda bolaning sof, samimiy sog'inchini ancha ta'sirchan va obrazli tasvirlashga xizmat qiladi.

Yana bir misolda shunday yoziladi:

«Tengdoshim, Asrdosh birodar!

Kel, bir on jim o'ygacha cho'maylik.

Bu yerda yotibdi fidolar,

Kel, uni gullarga ko'maylik.»

Bu yerda "fidolar" so'zi umumiy tilda kam uchraydi, shoir *fidolar* so'zi orqali dunyodan ko'z yumgan ajdodlarimizni nazarida turmoqda va bu so'zni okkazional birlik sifatida jonli obrazga aylantiradi.

Erkin Vohidovning poetik tafakkuri, ayniqsa, okkazional birliklar orqali o'zining xalqona, lekin bir vaqtning o'zida filosofik obrazlar bilan boyitilganligini ko'rsatadi. Bunday birliklar shoirning til yaratish qobiliyatini yaqqol namoyon etadi.

Shoir yana bir parchada olov *bolaligim* degan okkazional birliklarni qo'llaydi. Urush yillaridagi iztirobli bolalikni ifodalovchi obrazli ibora.

Qishloq ko'chasidan zanjiday qaro,

Olov bolaligim yugurayotir.

Dunyo qayg'usiga bo'lmagan oshno,

Qah-qah urayotir, barq urayotir

Yana bir parchada esa *yulduzlar mushtoq* deya, koinot unsurlarini shaxslashtirish orqali inson taqdiri bilan bog'lashga harakat qiladi.

Ulg'ay, bolajonim, ulg'aygin tezroq.

Sening yo'llaringga yulduzlar mushtoq.

Hozircha orom ol, yolg'izim, qo'zim.

Tun uzoq, uxlay qol, ko'zlaringni yum.

Erkin Vohidovning "Nido" dostoni o'zbek poetik tafakkurining chuqur ildizlari va zamonaviy badiiy til taraqqiyotining yuksak namunasi bo'lib, undagi okkazional birliklar shoirning individual uslubini ochib beradi. Okkazional birliklarning poetik matnda tutgan o'rni, ular orqali ifodalangan ruhiy holatlar, obrazlarning yanada teran va mazmunli bo'lishiga xizmat qilgan. Shu jihatdan, shoir ijodi bugungi tilshunoslik uchun ham dolzarb manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Vohidov, E. (2001). "Tanlangan asarlar", 2-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Rasulova, M. (2010). "Poetik til va badiiy obraz". Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Nurmonov, A. (2013). "O'zbek adabiyoti tarixi" (XX asr). Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
4. Qodirova, M. (2008). "Okkazional birliklar va ularning poetik matndagi o'rni". "Filologiya masalalari", №2, 45–49-betlar.